

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№10

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 69 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-oktyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

MOLIYAVIY INNOVATSIYALAR: IQTISODIY MOHIYATI, QO'LLANILISHI VA RIVOJLANISHI.....	18
Quliyev Begimqul Melikovich	
SAVDO KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA STATISTIK TAHLIL USULLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	24
Sabirova Oysuluv Shonazarovna	
KORXONANING MEBEL MAXSULOTLARI BOZORIDAGI O'RNINI KENGAYTIRISH USULLARI	30
Musayeva Shoirazimovna	
IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA KO'RSATKICHLARI TIZIMINING FUNKTSIONAL JIHATI.....	35
Alabayev Sobitxon	
MAMLAKATIMIZDA MAHSULOTLARNING MUVOFIQLIGINI BAHOLASH AMALIYOTI	40
Zakirov Ansabxon Akaidinovich	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЁНЫХ ОБЛИГАЦИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	48
Саидахмедова Аида Мирзаевна	
KORXONALAR FAOLIYATIDA DEBITOR VA KREDITOR QARZDORLIKNI BOSHQARISH	55
Mirzayev Ozod Furkatovich	
AHOLI PUL DAROMADLARI VA HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI EKONOMETRIK TAHLIL.....	59
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
BUDJET RESURSLARI SHAKLLANISHIDA HUDUDNING SOLIQ SALOHİYATINI OSHIRISH VA MOLIYAVIY BARQARORLIK.....	64
Yuldashev Adhamjon Axadjonovich	



BUDJET RESURSLARI SHAKLLANISHIDA HUDUDNING SOLIQ SALOHIYATINI OSHIRISH VA MOLYAVIY BARQARORLIK

Yuldashev Adhamjon Axadjonovich

UBS katta o'qituvchisi PhD

yuldashevadhamjon@mail.com,

UDK: 336.1.(575.1)

Annotatsiya: Ushbu maqolada budjet resurslari shakllanishida hududiy soliq salohiyatining iqtisodiy mohiyati va ahamiyati tahlil qilingan. Soliq salohiyati hududlarda moliyaviy barqarorlik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omil sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda soliq salohiyatini baholash, uni shakllantirish omillari va uning budjet daromadlariga ta'siri o'rganilgan. Yangi O'zbekistonda mahalliy budjetlarni samarali boshqarish va soliq salohiyatini oshirish strategiyalari muhimligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Budjet resurslari, soliq salohiyati, soliq nazorati, moliyaviy resurslar, mahalliy budjet, budjet resurslarini barqarorligi.

Abstract: This article analyzes the economic essence and significance of regional tax capacity in the formation of budget resources. Tax capacity is viewed as a crucial factor for ensuring financial stability and socio-economic development in regions. The study covers the assessment of tax capacity, its formation factors, and impact on budget revenues. Emphasis is placed on strategies for enhancing tax capacity and effective management of local budgets in the new Uzbekistan.

Key words: Budget resources, tax capacity, tax control, financial resources, local budget, sustainability of budget resources.

Аннотация: В данной статье проанализирована экономическая сущность и значение регионального налогового потенциала в формировании бюджетных ресурсов. Налоговый потенциал рассматривается как важный фактор обеспечения финансовой устойчивости и социально-экономического развития регионов. Исследование охватывает оценку налогового потенциала, факторы его формирования и влияние на доходы бюджета. Особое внимание уделяется стратегиям повышения налогового потенциала и эффективному управлению местными бюджетами в новой Узбекистане.

Ключевые слова: Бюджетные ресурсы, налоговый потенциал, налоговый контроль, финансовые ресурсы, местный бюджет, устойчивость бюджетных ресурсов.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat moliyaviy resurslarini shakllantirishda soliq tizimi va uning tarkibiy unsurlarining ahamiyati ortib bormoqda. Ayniqsa, hududiy darajada iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda soliq salohiyatining tahlili muhim o'rin tutadi. Soliq salohiyati — bu hududda mavjud bo'lgan soliqqa tortish bazasi asosida, amaldagi soliq siyosati doirasida budjetga jalb qilinishi mumkin bo'lgan soliqlar va yig'implar yig'indisidir. Ushbu ko'rsatkich hududning moliyaviy barqarorligi va iqtisodiy rivojlanish darajasini bevosita ifodalaydi.

Ayni paytda yalpi hududiy maxsulot ko'rsatkichi bilan bir qatorda hududlarning soliq salohiyati iqtisodiy rivojlanish darajasini aks ettiradi va budjetlar daromadlarining shakllanishi uchun xizmat qilmoqda. Demak, hududning soliq salohiyatini, soliq tizimini shakllantiruvchi omillar bilan bir qatorda hududiy maxsulotning hajmi va tarkibini e'tiborga olgan holda tadqiq etish lozim.

Yangi O'zbekistonda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish hamda aholining farovonligini yuksaltirishda hudud budjet resurslarini boshqarishni takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada mahalliy budjetlarni shakllantirishda joylardagi "O'rganish va hisobkitoblar barcha hududlarda ishga solinmayotgan bunday rezervlar ko'pligini ko'rsatmoqda. Agar adolatni joyiga qo'ysak, mahalliy budjetlarga tushum ko'p tushadi.[1]" ta'kidlangan.



MAVZUFA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Budjet resurslarini boshqarish masalalarining nazariy va amaliy muammolari bo'yicha chet ellik va MDH mamlakatlari iqtisodchi olimlaridan T.B. Коновалова, Н.А. Кузмина Местный бюджет и налоговый льготы, А.В. Улюкаев, Проблемы государственной бюджетной политики ilmiy asarlarida budjet resurslarini shakllantirish va soliq salohiyatini baholash va ulardan samarali foydalanish o'rganilgan. Shuningdek, O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan A.Vaxobov, T.Malikov, O.Olimjonov, N.Haydarov, Sh.Abdullayeva, A.Jo'rayev, S.Djumayev, X.Xamidov, A.Anarkulov, L.Buranova, U.Imanova, S.Ismailova, J.Ergashov, N.Primova va boshqalar ilmiy asarlarida budjet resurslarini shakllantirishi va soliq salohiyati masalalarini tadqiq etilgan


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Budjet mablag'larini samarali taqsimlash, boshqarish va sarflashni ta'minlovchi tizimga hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ustuvorliklarini hisobga olgan holda budjet rejalashtirish, daromadlarni yig'ish, xarajatlarni moliyalashtirish va nazorat qilish jarayonlari orqali hududning iqtisodiy salohiyatini oshirish, aholi turmush darajasini yaxshilash va barqaror rivojlanishida mamlakatimiz hududlarida budjet resurslarini boshqarishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlarning uslubiy asoslarini yanada kengaytirishda foydalanish mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatdagi barcha xo'jalik sub'yektlari faoliyatining natijasi bo'lib maydonga chiqadigan yalpi ichki mahsulot (YalM) va milliy daromad (MD) budjet tizimi orqali sodir bo'ladigan moliyaviy munosabatlarning yaxlit ob'yektlaridir. Iqtisodiyotning real sektorida yaratilgan yalpi ichki mahsulot va milliy daromad hududlarda ham taqsimlash va qayta taqsimlash bosqichlaridan o'tadi. Hududlarda milliy daromadni qayta taqsimlash va undan foydalanish davlat budjeti orqali amalga oshiriladi. Milliy daromadning muayyan qismi pul shaklida davlat budjetiga kelib tushadi va davlat moliyaviy resursiga aylanadi, ya'ni davlat budjeti resurslarining turli darajalardagi fondlari hosil bo'ladi.

Demak, budjet resurslari – bu muayyan davr mobaynida budjet daromadlari sifatida aniq manbalardan pul shaklida kelib tushadigan va budjetdan xarajatlarni moliyalash uchun safarbar qilinadigan resurslardir. (1-rasm)



1-rasm. Budjet resurslarini shakllanish tarkibi.

Rasmda aks etgan budjet resurslarining har biri mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi darajasiga bog'liq holda, uning natijasi sifatida vujudga keladi va shunga bog'liq holda budjet daromadlariga aylanadi. Har bir resurning davlat budjeti jami daromadidagi salmog'i ham shu jarayonda qaror topadi.




Hududlar budjeti harakatlanishi mamlakat miqyosidagi bir butun iqtisodiy jarayonning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Ichki mahsulotning va milliy daromadning taqsimlanishi o'zining moddiy ko'rinishidagi yakuniga hududlarda ham moliyaviy munosabatlar orqali yetib boradi va aynan budjet tizimi ham shunga xizmat qiladi. professor V.Rodionovanning so'zlari davlat budjetiga ham, uning tarkibiy qismi bo'lgan hududlar budjetiga ham taalluqli: "Budjet munosabatlari – bu jamiyat iqtisodiy tuzilishining ajralmas qismidir; uning amal qilishi davlat tomonidan unga tegishli funksiyalarni bajarishi uchun zaruriy moddiy-moliyaviy bazani shakllantirish bilan ob'yektiv ravishda aniqlanadi"[1].

Ma'lumki, davlat tomonidan moliyaviy oqimlarni tartibga solishda soliq maqsadlarida ma'muriy boshqarish muhim vazifa bo'lib maydonga chiqadi. Bunda soliq operatsiyalarini rejalashtirish va amalga oshirish jarayonida undagi boshqaruv va ijro harakatlari haqida turli-tuman axborot yig'iladi, qayta ishlanadi va taqdim etiladi. Shu asosda soliq qonunchiligini o'zgartirish bo'yicha takliflar vujudga keladi. Hududning soliq salohiyati rivojlanishining strategik rejalashtirishni emrerativ va indikativ bo'lishi mumkin. Imrerativ rejalashtirishda umumdavlat soliq muassasalari mahalliy soliq organlariga turli darajadagi budjetlarga soliqlarni yig'ish reja ko'rsatkichlarini yuqoridan direktiv tarzda belgilaydilar.

Indikativ rejalashtirishda esa hudud soliq salohiyati rivojlanishidagi ustuvor maqsadlar guruhlar bilan olinadi, iqtisodiy faoliyatning muayyan turlarini bilvosita rag'batlantirish choralari belgilanadi, shuningdek iqtisodiy faoliyatning ayrim turlarini yashirin iqtisodiyotdan holilashtirish chora tadbirlari tuziladi[2]. Sababi hozirgi paytda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, eksportni kengaytirish, mahalliyashtirish ustvor kasb etmoqda.

Soliq maqsadlari ma'muriy boshqarish o'z ichiga to'rtta elementni oladi;



Mazkur elementlar soliq muxitining tashqi omillar ta'sirida o'zgartirib boradigan sabab-oqibat bog'liqlariga monand ravishda rivojlanadi. Soliqni rejalashtirish faoliyatining umumdavlat va mahalliy darajalarda o'zaro mustahkam bog'lab olib borishdadir.

Soliq nazorati soliq rejalashtirilishi va tartibga solishi bilan funksional jihatdan bog'langan. U rejalashtirish va tartibga solishning barcha bosqichlarida amalga oshiriladi, soliq ma'muriy boshqaruv tizimining o'zagini tashkil etadi.

Davlatning soliq nazorati soliq munosabatlarning turli sohalarida davlat nomidan va davlat manfaatlarini uchun olib boriladi. Davlat hokimiyati organlarida ham, korporativ sub'yektlarda ham nazorat faoliyati salmoqli moliyaviy xarajatlarni talab etadi. Har ikki holda ham nazorat natijalarini, fiskal (budjet uchun) oqibatlarini tahlil qilib borishi lozim; soliq sohasini boshqaruvchilar uchun bu soliq daromadlari; soliq to'lovchilar uchun esa bu soliq xarajatlari; nazorat bu soliqqa tortish sohasida qarorlar qabul qilish va amalga oshirish bo'yicha tamoyillar yig'indisini axborot bilan quvvatlashning maxsus sohasidir. U soliq ma'muriy boshqaruvchilarni avvldan begilab berilgan o'lchamlarning (indikatorlarning) turli chetlanishlar haqida axborot bilan ta'minlaydi. Bunda davlat soliq nazoratining amalga oshirilishi qonuniylik, iqtisodiy asoslanganlik, maqsadga muvofiqlik, shaklning mazmunga mos kelishi oqilona yondashish, natijadorlik kabi tamoyillarga muvofiq olib boriladi[3]. Davlat soliq nazorati oqilona olib borilishi mamlakat miqyosida birlashtirilgan budjetning daromad bazasi haqidagi axborot tizimining shakllanishi va harakatlanishi uchun juda muhim ahamiyatga ega.


Hududning soliq salohiyati tadqiq etishga uch xil yondashish mumkin; iqtisodiyotning resurslari bilan ta'minlanganligi oid takror ishlab chiqarish jarayonlar bo'yicha. Natijaviy yondashish doirasida soliq salohiyati muayyan hudud doirasida faoliyat ko'rsatayotgan soliq tizimining soliqqa tortishni mavjud sharoitlarida budjetni soliq daromadlari bilan ta'minlab turish qobiliyati sifatida aniqlanadi. Soliq salohiyatini resurslar bo'yicha aniqlashda soliqqa tortiladigan bazalar asos qilib olinadi. Bunday yondashuvlarni chuqquroq tahlil etish ular soliq salohiyat shakllanishiga bir tomonlama yondashayotganligini ko'rsatadi. Shuning uchun bunday yondashuvlarda soliq salohiyatining muhim xususiyati e'tibordan chetda qoladi.

Takror ishlab chiqarish nuqtai nazaridan yondashuvda soliq salohiyatining mazmuni tahliliing "Resurslar – shart-sharoitlari - natijalar" sxemasiga muvofiq amalga oshiriladi, shuningdek uning iqtisodiy tizim rivojlanishining



erishilgan darajasi bilan o'zaro bog'liqligini o'rganiladi. Mazkur yondashuvda soliq salohiyatini hududning soliq resurslarini budjetning soliq daromadlariga aylantirish bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy munosabatlarning yig'indisi bo'lgan iqtisodiy kategoriya sifatida tushuniladi. Soliq salohiyatining samaradorligi esa iqtisodiyot rivojlanishining erishilgan ko'lamlari va institutsional tashkil etilishi sharoitlarida soliqqa tortishning fiskal tartibga solish funksiyasi amal qilish darajasi bilan o'lchanadi.

Soliq salohiyatining iqtisodiy kategoriya sifatida muhim belgilari uning takror ishlab chiqarishga ta'sirida, ehtimoliy harakterida (bu soliq salohiyati soliq tushumlarining haqiqatdagi hajmi emas, balki erishish mumkin bo'lgan hajmni ko'rsatishda ifodalanadi), iqtisodiy tizimning institutsional tashkil etilishiga bog'liqligida o'z aksini topadi. Hududning soliq salohiyati iqtisodiy mohiyatini o'rganib chiqish uning funksional mazmunini ochib tashlashga unga xos belgilarni va funksional mazmunga ega bo'lgan elementlarni yoritishga imkon beradi (2-rasm)2-rasm.



Soliq salohiyati hudud budjet resurslarini iqtisodiy mohiyati

Hudud soliq salohiyatini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillarni kelib chiquvchi manbalari bo'yicha ob'yektiv va sub'yektiv omillarga bo'linadi. Soliq salohiyatini shakllanish jarayoni o'zida iqtisodiy rivojlanishining sharoitlari va o'lchamlari kompleksini birlashtiradi, hududning iqtisodiy salohiyatini aks ettiradi, iqtisodiy salohiyatning elementlari esa soliqqa tortish obyektlariga aylantirilishi mumkin. Iqtisodiy omillar bloki qo'shilganda qiymatini va soliq resurslarini yaratib turadi. Soliq salohiyati uni shakllantiruvchi normativ va budjet bloklarini o'z ichiga budjet va soliq sohasining tamoyillari qoidalari, normalari, normativlari va boshqalarni ham o'z ichiga oladi. Mazkur bloklarning elementlari soliqqa tortish jarayoni sub'yektlarning o'zaro birgalikda harakatini tarkibiy va funksional jihatdan tartibga soladi va shu orqali soliq salohiyatini shakllantiradi[4].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida soliq salohiyati mamlakat va hududlar iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashda, budjet resurslarini samarali shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Soliq salohiyati orqali hududda mavjud soliqqa tortish bazasi va amaldagi soliq siyosati doirasida byudjetga jalb qilinishi mumkin bo'lgan soliqlar va yig'implarning hajmi aniqlanadi. Bu ko'rsatkich hududning moliyaviy barqarorligi hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini bevosita ifodalaydi.

Soliq salohiyatining yashirin rezervlarini tahlil qilish quyidagi xulosalarga olib keladi:

Soliqqa tortishdan bo'yin tovlash hajmi soliq salohiyatining alohida qismi bo'lib, tez-tez o'zgarib turadi va uning o'zgarishlari soliq salohiyati tarkibiy tizimining dinamikasiga bog'liq ravishda sodir bo'ladi;

soliq uchun likvidlik xos, u soliq bazasining barcha darajadagi budjetlarning daromadlariga aylana olish qobiliyatini bildiradi. Likvidlik nazorat faoliyatining ta'sirchanligiga ham bog'liq;

bo'yin tovlash ko'lamini baholash uchun nazorat faoliyati natijalaridan foydalanilsa, shuningdek tatqiq etilayotgan hudud xususiyatlari hisobga olinsa natija aniqroq bo'ladi.



Shunday qilib, hududiy soliq salohiyati va budjet resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish orqali yangi O'zbekistonda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va aholining farovonligini yaxshilashga erishish mumkin. Bu jarayonda hududlarning iqtisodiy imkoniyatlarini samarali aniqlash, soliq tizimini optimallashtirish va mahalliy budjetlarning daromad bazasini kengaytirish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Shavkat Mirziyoyev, 5-iyun 2018-yilda videoselektor yig'ilishida.
2. Т.В. Коновалова, Н.А. Кузмина Местный бюджет и налоговый льготы. Финансы кредит -2005 №27 с.45 49
3. А.В. Улюкаев, Проблемы государственной бюджетной политики. Монография М.:Дело 2004г 543с
4. Х.А.Қобулов Худудий иқтисодиёт ва маҳаллий бюджетлар имкониятларини ошириш йўналишлари иқтисод фан. номзоди диссертацияси Тошкент 2006 йил 148 бет.
5. Ф.М.Оллокулова Маҳаллий бюджетлар даромадлар манбаини кенгайтириш йўналишлари 08.00.07-Молия, пул муомаласи ва кредит Автореферат.
6. Б.Э.Тошмуродова Солиқлар воситасида иқтисодиётни бошқариш механизми. Тошкент: "Янги аср авлоди", 2002.-128 бет
7. Т.С. Маликов. П.Т. Жалилов Бюджет-солиқ сиёсати Тошкент: Академнашр 2011 йил 472 бет.
8. А.Ваҳобов З. Срожиддинова Ўзбекистон Республикаси давлат бюджети. Тошкент: ТМИ, 2002 йил 115 бет.
9. Ш.Мустафакулов. Худудларни самарали бошқаришнинг услуги ва стратегик аҳамияти. Молия ва банк иши электрон журнаи. 2-сон январь, 2016 23-25 бет.
10. Жўраев А.С. Давлат бюджети даромадларини шакллантиришнинг самарали йўллари.- Тошкент: "ФАН", 2004йил 243 бет.А.С. Жўраев Давлат бюджети даромадларини шакллантиришнинг долзарб муаммолари дис. иқтисод фан. доктори: Тошкент 2005 йил 121 бет.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
